Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Tijorat banklarining aktivlari portfelini samaradorligini mustahkamlashda xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1368
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	



SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION BOSHQARUVI TAHLILI VA UNING XUSUSIYATLARI



Sarimsaqov Doniyor Xomidovich

Andijon davlat texnika instituti,
Muhandislik iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
dekani, i.f.f.d. (PhD) dotsent.
E-mail: Asiqtisod@gmail.com.
ORCID ID: 0000-0002-8024-8342

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari o'rganilgan. Tahlil etilayotgan davrda innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalar soni 2008-yilda 304 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich bazis davrga nisbatan 4,8 marta ortgan holda 1450 taga yetdi. Shuningdek, korxonalar faoliyatiga joriy qilingan innovatsiyalar soni 5,1 marta ortgan holda, 2024-yilda 3452 tani tashkil etdi. Andijon viloyati bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalar soni 2008-yilda 22 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich bazis davrga nisbatan 4,7 marta ortgan holda 104 taga yetdi. Shuningdek, korxonalar faoliyatiga joriy qilingan innovatsiyalar soni 5,0 marta ortgan holda, 2024-yilda 247 tani tashkil etdi.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, innovatsion rivojlanish, diversifikatsiya, startup, yuqori qo'shilgan qiymat, korxonaning innovatsion rivojlanishi.

Abstract: The article analyzes the innovation management of industrial enterprises and its features. During the analyzed period, the number of enterprises with innovative management practices was 304 in 2008, and by 2024 this figure increased by 4.8 times compared to the base period and reached 1450. Also, the number of innovations introduced into the activities of enterprises increased by 5.1 times, reaching 3452 in 2024. If we consider the Andijan region, the number of enterprises with innovative management methods was 22 in 2008, but by 2024 this figure increased by 4.7 times compared to the base period, reaching 104. Also, the number of innovations introduced into the activities of enterprises increased by 5.0 times, reaching 247 in 2024.

Key words: innovative management, innovative development, diversification, startup, high added value, innovative development of the enterprise.

Аннотация: В статье анализируется инновационный менеджмент промышленных предприятий и его особенности. За анализируемый период количество предприятий с инновационной практикой управления составило в 2008 году 304, а к 2024 году этот показатель увеличился в 4,8 раза по сравнению с базовым периодом и достиг 1450. Также количество внедренных в деятельность предприятий инноваций увеличилось в 5,1 раза, достигнув в 2024 году 3452. Если рассматривать Андижанскую область, то количество предприятий с инновационными методами управления составляло 22 в 2008 году, но к 2024 году этот показатель увеличился в 4,7 раза по сравнению с базовым периодом, достигнув 104. Также количество внедренных в деятельность предприятий инноваций увеличилось в 5,0 раза, достигнув в 2024 году 247.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, инновационное развитие, диверсификация, стартап, высокая добавленная стоимость, инновационное развитие предприятия.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirish, yirik ishlab chiqarish korxonalari hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirish, shuningdek, startup innovatsion biznes loyihalarni ishlab chiqish va ularning rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, korxonalarda innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining milliy va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilashda ularning iqtisodiy faoliyatini innovatsion yo'nalishda amalga oshirishi muhim talab bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoat korxonalarining jadal rivojlanishi, ularning tashkiliy tuzilmasining tobora murakkablashib borishi, faoliyat yo'nalishlari va turlari ko'lamining kengayishi natijasida, sanoat korxonalari boshqaruvining funksiyalari ham murakkab tus olmoqda. Bu esa oqilona va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida muayyan muammolar yuzaga kelayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda.

Xususan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarda taraqqiyot strategiyasi"da quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan: "...milliy iqtisodiyot tarkibida sanoat ulushini oshirish, yuqori texnologiyali sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, har bir hududning sanoat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, yangi sanoat korxonalari va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish."¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvini o'rganishda xalqaro va milliy miqyosdagi ko'plab tadqiqotlarda bu jarayonning iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Xususan, Schumpeter (1934) innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rsatgan bo'lib, innovatsion faoliyat korxonalarining raqobat ustunligini saqlab qolishidagi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Rasulov N.M. (2021) o'z tadqiqotida korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqib, boshqaruv qarorlarida innovatsion tashabbuslarning rolini asoslab bergan. Shuningdek, Zayniddinov Sh.N. va Rasulov N.M. (2020) tomonidan yozilgan "Innovatsion menejment" darsligida innovatsion boshqaruvning tizimli yondashuvi, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar integratsiyasi yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasining "2019–2021 yillarda Innovatsion rivojlanish strategiyasi"da innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ilmiy-texnik salohiyatni kuchaytirish va sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bu normativ-huquqiy hujjat

O'zbekistonda sanoat sohasida innovatsion boshqaruvni joriy etish uchun asosiy strategik hujjat hisoblanadi.

The Global Innovation Index (2020) hisobotida esa innovatsion salohiyatni moliyalashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish innovatsion boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur hisobot O'zbekistonning innovatsion faoliyat bo'yicha xalqaro reytinglarda tutgan o'rni va mavjud imkoniyatlarini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Milliy olimlardan Shodieva D. (2020) o'z ilmiy tadqiqotida sanoat tarmoqlari kesimida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va sarmoyaviy samaradorlik masalalarini yoritib, innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan.

Yuqoridagi adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun strategik yondashuv, institutsional muhit va moliyaviy resurslar muvofiqligini ta'minlash zarur. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi jarayonlarini chuqur o'rganish, mavjud holatni baholash va asosiy muammolarni aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda asosiy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022 y.



ma'lumotlar manbai sifatida Davlat statistika qo'mitasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy hisobotlari, Andijon viloyati bo'yicha investitsion dasturlar statistikasi hamda 2008–2024-yillar davomida to'plangan tarmoq ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy ilmiy adabiyotlardan ham keng foydalanildi. Tadqiqotda deskriptiv tahlil, tendensiyalarni aniqlash, hududiy qiyoslash va nisbatlar tahlili kabi statistik usullar qo'llanildi. Jumladan, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvga oid asosiy ko'rsatkichlar yillik kesimda tahlil qilindi, innovatsion faoliyatning o'sish sur'atlari baholandi, Andijon viloyati ko'rsatkichlari respublika darajasi bilan taqqoslandi, shuningdek, har bir korxona hisobiga to'g'ri kelgan innovatsiyalar soni va innovatsion mahsulot hajmining xarajatlar bilan nisbati aniqlandi. Tadqiqotda Andijon viloyatidagi sanoat korxonalariga oid empirik ma'lumotlar asosida tahlillar olib borildi. Mazkur ma'lumotlar orqali innovatsion boshqaruvning rivojlanish darajasi, moliyalashtirish manbalari va investitsion faoliyat holati o'rganildi. Biroq, tadqiqot davomida ayrim statistik ko'rsatkichlarning to'liq emasligi va vaqt bo'yicha uzluksizligining buzilishi natijasida ayrim holatlarda tahlil imkoniyatlari cheklangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar ko'rsatishicha, 2008–2024-yillar mobaynida O'zbekiston milliy iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion boshqaruv jarayonlari sezilarli darajada takomillashgan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni esa ortgan.

Jumladan, innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalar soni 2008-yilda 304 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich bazaviy davrga nisbatan 4,8 marta ortib, 1450 taga yetgan. Shuningdek, korxonalar faoliyatiga joriy etilgan innovatsiyalar soni ham 5,1 marta oshib, 2024-yilda 3452 tani tashkil etgan.

Andijon viloyati misolida qaraydigan bo'lsak, innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalar soni 2008-yilda 22 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,7 barobarga ortib, 104 taga yetgan. Xuddi shu davrda viloyatda korxonalar faoliyatiga joriy etilgan innovatsiyalar soni 5,0 marta ko'payib, 2024-yilda 247 taga yetgan. (1-jadval)

1-jadval. O'zbekistonda korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyatining tarkibiy ko'rsatkichlari²


Ko'rsatkichlar nomi/ yillar	2008	2010	2015	2016	2018	2024
Innovatsiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlari soni, jami	304	149	935	933	1024	1450
Andijon viloyati	21	11	67	66	73	104
Jumladan,						
Texnologik	268	145	894	893	982	1390
Marketing	15	1	14	20	17	25
Tashkiliy	21	3	27	20	25	35
Joriy qilingan jami innovatsiyalar soni	683	500	1819	1906	2558	3452
Andijon viloyat	49	36	130	136	161	247
Jumladan,						
Texnologik	578	462	1737	1816	2482	3303
Marketing	58	32	36	51	42	74
Tashkiliy	47	6	46	39	34	75

Jumladan, korxonalar boshqaruvida texnologik innovatsiyalarni o'z amaliyotiga tatbiq etgan korxonalar soni 5,2 marta ortib, 1 390 tani tashkil etdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2024-yilda jahonda kuzatilgan global "COVID–19" pandemiyasi sharoitida ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 124 taga kamaygan. Andijon viloyatida esa bu ko'rsatkich 5,0 marta ortib, 104 tani tashkil etgan bo'lsa-da, 2023-yilga nisbatan 9 taga qisqargan. Ushbu holat innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga intilgan korxonalar tomonidan ularni moliyalashtirish uchun zarur investitsion resurslarni jalb qila olmasliklari, shuningdek, qat'iy karantin chora-tadbirlari tufayli sanoat korxonalarining ma'lum muddat davomida faoliyat yurita olmaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, korxona boshqaruvi amaliyotida marketing va tashkiliy innovatsion faoliyat mavjud bo'lgan korxonalar soni 1,7 marta oshgan.

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>




O'rganilayotgan davrda mamlakatimiz milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan xarajatlar 12,3 marta ortib, 2024-yilda 6 434,8 milliard so'mni tashkil etgan. Korxonalar tomonidan jami ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi esa 19,3 marta oshib, 2024-yilda 25 543,6 milliard so'mga yetgan (1-rasmga qarang). Shu jumladan, Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi 2008-yilga nisbatan 2024-yilda 12,3 marta ortib, 459,6 milliard so'mni tashkil etgan. Innovatsiyalarga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi esa 19,3 marta ortib, 1 824,5 milliard so'mga yetgan.



1-rasm. O'zbekistonda va Andijon viloyatidagi korxonalarning innovatsion faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda³

Tahlillar ko'rsatishicha, 2008–2024-yillarda mamlakatimizda korxonalarning innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishi yuqori emas. Xususan, xo'jalik yuritish amaliyotida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar sonining ortishiga parallel ravishda, innovatsiyalarni joriy qilish ko'rsatkichi ham ortib borgan. 2008-yilda innovatsion faoliyatni o'z amaliyotiga tatbiq etgan har bir korxonaga o'rtacha 2,2 ta innovatsion loyiha to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2,4 taga teng bo'ldi. Shuningdek, korxonalar innovatsion faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichi, ya'ni korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan jami innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi bilan innovatsion loyihani amaliyotga tatbiq etish uchun sarflangan jami xarajatlar o'rtasidagi nisbat o'rganilayotgan davrda 2008-yildagi 2,5 barobarlik ko'rsatkich 2024-yilga kelib o'rta hisobda 4,0 barobarga teng bo'ldi (2.3-rasmga qarang).

Ushbu holat, bevosita, korxonalarda innovatsion loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha boshqaruv amaliyotining bir muncha takomillashganligidan dalolat beradi. Ammo korxonalar innovatsion boshqaruvining rivojlanganlik darajasi xalqaro talablarga to'liq mos kelmaydi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida korxonalarning innovatsion faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili⁴

3 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

4 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>




2-jadval. 2017-2024-yillarda Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida viloyat hududlari kesimida amalga oshirilgan investitsion loyihalar to'g'risida ma'lumot⁵

№	Shahar va tumanlar soni	Jami loyihalar						
		Loyiha soni	Loyiha qiymati, mln so'm	shu jumladan				Ish o'rni
				o'z mablag'i	bank krediti	xorijiy kredit liniyasi (ming dollar)	xorijiy investitsiya (ming dollar)	
Viloyat jami		168	8 804 478	3 569 955	1 188 992	199 105	220 412	31 662
1	Andijon shahri	41	2091980	943844	186992	44579	61700	9020
2	Xonobod shahri	5	216774	140670	17640	1000	4800	614
3	Andijon tumani	9	404984	136662	58080	8830	12952	985
4	Asaka tumani	14	829623	395293	106350	21410	12000	3540
5	Baliqchi tumani	5	417603	88229	66286		26100	1073
6	Bo'ston tumani	8	461205	219410	101545	11000	3000	1475
7	Buloqboshi tumani	7	129816	41236	2900		8500	343
8	Jalaquduq tumani	4	154144	129300	6700	1800		832
9	Izboskan tumani	6	252886	75800	57366		14600	715
10	Qo'rg'on tepa tumani	9	1118312	202924	135252	64900	14460	3125
11	Marxamat tumani	11	429325	328499	22500	3848	4000	2295
12	Oltinko'l tumani	9	290869	92750	132835	6218	300	870
13	Paxtaobod tumani	7	456631	63771	22420	27600	9150	1105
14	Ulug'nor tumani	10	354412	216592	102070	2641	1000	1082
15	Xo'jaobod tumani	14	869689	226859	138500	5279	45000	3591
16	Shahrihon tumani	9	326226	268116	31555		2850	997

Shuningdek, so'nggi yillarda Andijon viloyatida ham sanoat korxonalari faoliyatini innovatsion rivojlantirishga katta ustuvorlik qaratib kelinmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, 2017–2024-yillar davomida Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 8,8 trln so'mlik jami 168 ta investitsion loyiha amalga oshirilgan. Ushbu davrda viloyat hududlari kesimida amalga oshirilgan investitsion loyihalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jami loyihalarining qariyb 1/4 qismi Andijon shahri (41 ta loyiha) hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Asaka (14 ta loyiha), Xo'jaobod (14 ta loyiha), Marxamat (11 ta loyiha) va Ulug'nor (10 ta loyiha) tumanlarida ham investitsion loyihalarni amalga oshirishga ustuvorlik qaratilganligi e'tiborga loyiqdir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan davrda Andijon viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalar hisobiga jami 31 662 ta yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, aholining bandligini ta'minlashga muhim hissa qo'shilgan. (3-rasm)

⁵ Andijon viloyati hokimiyati rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan



3-rasm. 2017-2024-yillarda Andijon viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlili (jami nisbatan foizda)⁶

O'rganilayotgan davrda Andijon viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning moliyalashtirish manbalari tahliliga ko'ra, amalga oshirilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish xarajatlarining 40,6 foizi korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, 24,1 foiz moliyaviy resurslar xorijiy investorlarning, va jami xarajatlarning 21,8 foiz ulushi esa xorijiy kredit liniyalari hisobiga to'g'ri keldi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, 2017–2024-yillarda Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning 58,9 foizi aynan sanoat sohasida amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 5 693 127 mln so'mni tashkil etdi va ushbu loyihalar hisobidan jami 24 863 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, sanoat sohasida amalga oshirilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga sarflangan xarajatlarning 31,8 foizi korxonaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, 30,7 foizi xorijiy kredit liniyalari, 23,3 foizi xorijiy investorlar mablag'lari va 14,2 foizi esa mahalliy tijorat banklari kreditlari hisobidan moliyalashtirildi (3-jadval).

3-jadval. 2017–2024-yillarda Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida viloyat iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarida amalga oshirilgan investitsion loyihalar⁷

№	Tarmoqlar nomi	Jami loyihalar						
		Loyiha soni	Loyiha qiymati, mln so'm	shu jumladan				Ish o'rni
				o'z mablag'i	bank krediti	xorijiy kredit liniyasi (ming dollar)	xorijiy invest. (ming dollar)	
1	Sanoat	99	5693127	1808947	808206	182966	138752	24863
2	Xizmat ko'rsatish	35	1714633	878100	84648	1200	74910	1741
3	Qishloq xo'jaligi	34	1396718	882908	296137	14939	6750	5058
	Jami	168	8804478	3569955	1188992	199105	220412	31662

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatishicha, so'nggi yillarda respublika, jumladan Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning aksariyati sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan innovatsion rivojlanishga bo'lgan intilishi ortib bormoqda. Shuningdek, xorijiy investorlar mablag'lari va xorijiy kredit liniyalarini jalb qilishga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi rivojlanishiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar va muammoli holatlar mavjud:

sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishda texnologik innovatsiyalarni joriy etishga ustuvorlik berilishi; mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish;

⁶ Andijon viloyati hokimiyati rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan

⁷ Andijon viloyati hokimiyati rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan



tashkiliy va marketing innovatsiyalarini joriy etishda malakali kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi innovatsiyalar uchun infratuzilmaning rivojlanmaganligi;

innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishda marketing tadqiqotlarini o'tkazishga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi; texnik va texnologik modernizatsiya jarayonida xorijdan olib kirilayotgan ayrim texnik vositalarning ma'naviy jihatdan eskirganligi;

mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega yuqori malakali texnolog mutaxassislarning yetishmasligi;

Andijon viloyatida yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi an'anaviy boshqaruv usuliga asoslanganligi.

Fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan muammo va tavsiyalarni hisobga olgan holda, mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish nafaqat uzoq muddatli istiqbolda yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi, balki jahon bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratadi. Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning yangi bozorlarni o'zlashtirishi hisobiga, mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi ta'minlanadi. Natijada, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar eksport hajmi sezilarli darajada ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, xususan, Andijon viloyatida sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan. Innovatsion faoliyatga oid statistik ko'rsatkichlar, investitsion loyihalarning hajmi va manbalari, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi tahlili, mamlakatda sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv jarayonlarida ayrim muammolar, jumladan, moliyalashtirish resurslarining cheklanganligi, yuqori malakali kadrlar tanqisligi, marketing va tashkiliy innovatsiyalarning yetarli darajada joriy qilinmasligi kabi holatlar saqlanib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, innovatsion boshqaruv bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash zarur; ikkinchidan, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususan, xorijiy investorlar va kredit liniyalarini jalb etishga alohida e'tibor qaratish lozim; uchinchidan, korxonalarda raqamli texnologiyalar asosida innovatsion boshqaruvni yo'lga qo'yish orqali boshqaruv qarorlarining tezkorligini va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq; to'rtinchidan, innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash va sanoat infratuzilmasini bu borada yanada takomillashtirish kerak. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi sanoat korxonalarining barqaror innovatsion rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi va mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni, 28.01.2022-yil. PF-60-son, 28.01.2022. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli farmoni, 21.09.2018-yil. <https://lex.uz/docs/3913188>
3. The Global Innovation Index 2020: Who Will Finance Innovation? — is the result of a collaboration between Cornell University, INSEAD, and the World Intellectual Property Organization (WIPO) as co-publishers, and their Knowledge Partners. 2020. p. 341. <https://www.globalinnovationindex.org/gii-2020-report>
4. Zaynuddinov Sh.N., Rasulov N.M. Innovatsion menejment (darslik). — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. — B. 540.
5. Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubi-yotini takomillashtirish (DSc dissertatsiyasi avtoreferati). — T.: 2021. — B. 81.
6. Shodieva D. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). — T.: 2020. — B. 58.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>